

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

K.D.Ismanova – dotsent

Namangan muhandislik-texnologiya unstituti, Namangan

Sh.H.To'xtasinova – talaba

Namangan muhandislik-texnologiya unstituti, Namangan

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda talabalarning o'zaro munosabatlari asosida ularning faolligini ta'minlaydigan pedagogik texnologiyalar tahlil etildi. Bugungi kunda ta'limdagi asosiy vazifalardan biri talabani bilim olishga undash va undagi mas'uliyatni oshirishdir. Bunda muammoli masalalarni talabalarga berish orqali ulardagi qiziqishni orttirish orqali ta'lim samaradorligi ortgani aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Samaradorlik, zamonaviy ta'lim, ta'lim tizimi, pedagogik mahorat, kontentlar, muammoli masalalar.

Mamlakatimizda sog'lom va uyg'un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlarni yaratish, XXI asrni intellektual qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda yoshlarni har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish borasidagi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi «Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida» qabul qilgan Qarorida zamonaviy fikrlovchi pedagogik kadrlar tayyorlashga, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari, shuningdek, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanishni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilishiga urg'u berilgan. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya jarayonini sifat jihatidan tamomila yangi darajaga ko'tarishni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayonining mohiyatini o'zaro bog'langan uchta – o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi omillar tashkil etadi. Bunda eng asosiysi ijtimoiy sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, turli vaziyatlarni to'g'ri baholay oladigan bo'lishlari talab etiladi. Yoshlarda ana shunday sifatlarni o'quv-tarbiya jarayonida pedagogik vaziyatli masalalarni yechishga qaratilgan uslublardan foydalanilgan mashg'ulotlarda shakllantirish va rivojlantirish mumkin.

Muammoli ta'lim bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. U talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu esa bugungi axborotlar oqimi davri uchun o'ta muhim hisoblanadi

Ta'lim jarayonida muammoli o'qitish samarali, maqsadga muvofiq bo'lishi uchun uni o'quv jarayoni, o'quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta'lim yordamida talabalarda o'quv muammolari va mutaxassislik masalalarini yechishga tadqiqiy yondashish, mustaqil tarzda o'rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

Ma'lumki, muammoli metodlarni samarali qo'llashning muhim mezonlaridan biri muammoli vaziyatni vujudga keltirish, muammoni kun tartibiga qo'ya bilishdir. Pedagoglarning fikricha, muammoli o'qitish o'quvchining mustaqilligini, fikrlash doirasini kengaytirishga olib keladi. Muammoli o'qitish o'quvchilarni faol bilish jarayoniga undab, tafakkurni ilmiy tadqiqotga yo'naltiradi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u o'quvchiga tanish bo'lgan ma'lumotlar, bilganlari bilan yangi faktlar, hodisalar o'rtasida hamda muqobil tanlov zaruriyati vujudga kelishi nati-jasida qaror qabul qilishning qiyinchiligi oqibatida kelib chiqadigan vaziyatdir.

O'qituvchi o'tilayotgan darsning shakli, o'tilayotgan fan, mavzu va uning xususiyatlariga ko'ra qanday muammo qo'yishni, muammoli vaziyat vujudga keltirishni o'zi hal qiladi. Mazkur metodning o'ziga xos jihati o'quvchilar oldiga muammo qo'yilishidir.

Muammoli ma'ruza muammo qo'yish orqali boshlanadi. Bu muammo esa o'quv materialini bayon etish jarayonida ma'ruzachi tomonidan izchil va mantiqiy holda yechib beriladi yoki uni hal etish yo'llari ko'rsatiladi. Muammo o'quv materialining aniq mazmuni bilan bog'liq bo'ladi.

“Dars mashg'ulotida qanday muammoli savollar qo'yish lozim?” degan tabiiy savol tug'iladi. O'quvchi javob berolmagan savollarning hammasi ham muammoli vaziyatni vujudga keltira olmaydi. Masalan, «Qanday matn proessorlarini bilasiz?» yoki «Matnli muharrir nima?» kabi masalalar yechimini qo'yish muammoli vaziyat yoki muammo bo'la olmaydi.

Tajribali pedagoglarning fikricha, faqat o'qitish jarayonida qarama-qarshilik paydo bo'lgan vaziyatnigina muammoli vaziyat deb ataladi. O'quvchi o'qish, bilish jarayonida qarama-qarshiliklarga duch kelsa, uning bilimga bo'lgan qiziqishi ortadi. Boshqacha qilib aytganda, motivatsiya paydo bo'ladi.

Quyida “*Microsoft Word dasturida matnlarni tahrirlash*” mavzusini muammoli o’qitish uchun ishlab chiqilgan muammoli savollar tavsiya etiladi:

<i>Muammo- 1</i>	Matnli muharrirlar ichida qaysilari afzalroq deb o’ylaysiz?
<i>Muammo- 2</i>	Matnli muharrirning imkoniyatlarini to’liq tasavvur etasizmi?
<i>Muammo- 3</i>	Matnli muharrirda ham harakatlarni amalga oshirsa bo’ladimi?
<i>Muammo- 4</i>	Matnli muharrirlar bilan matn processorlari o’rtasidagi farqlarni tavsiflay olasizmi?
<i>Muammo- 5</i>	Matn processorini yangilash vazifasi murakkab deb o’ylaysizmi?
<i>Muammo- 6</i>	Matn processorida yana qanday imkoniyatlar bo’lishini xohlaysiz?

Mazkur muammoli savollar o’quvchilarning faol munosabatlarini shakllantirishda, guruhlar yordamida hal etishga mo’ljallangan bo’lib, birmuncha murakkabroq qilib tuzildi. Chunki, informatika yo’nalishida ta’lim olayotgan o’quvchi mazkur muammoli savollar yuzasidan fikrlashi, yechimlar topishi va kelgusi kasbiy faoliyatida ulardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo’lishi kerak.

Shunday qilib, darsda o’quvchilar o’qituvchining o’rgatishga samimiy intilayotganini his qilishi zarur. O’quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish uchun ularni doimo o’zlarida tug’ilgan savolni berishga undash lozim. Dars oxirida qarama-qarshiliklar oydinlashtirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, dars mashg’uloti jarayonida mahoratli pedagog albatta o’quvchilarga mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur eta olishiga yordam beruvchi muammoli savol va vaziyatlarni topadi va ulardan unumli foydalanadi. Bu esa dars mashg’ulotlari samaradorligiga ijobiy ta’sir etuvchi eng muhim omillardandir.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 28-29-сон, 262-модда
2. К. Исманова. Амалий дарс машғулотларини инновацион усуллар ёрдамида ташкил этиш. Таълим муаммолари журнали. 2-сон, 2012 й.